

# Uzbekistan Airways bortida chaqaloq dunyoga keldi!

2025 28 Yanvar

Aviakompaniyaning 33 yillik yubileyi kuni HY101 reysi (Toshkent – Nyu-York) bortida ajoyib voqea sodir bo'ldi! Parvoz davomida yo'lovchilardan biri tug'ruq boshladi. Vaziyatni baholab, ekipaj brigadasi boshqaruvchisi ovozli e'lon orqali samolyotdagi shifokorlarni yordamga chaqirdi.

Chaqiriqqa yo'lovchilar orasidagi shifokor-akusher va jarroh javob berishdi. Bir oz vaqt o'tib, yo'lovchi o'g'il farzandini dunyoga keltirdi. Shu munosabat bilan ekipaj Islandiyaning Keflavik shahridagi zaxira aerodromiga majburiy qo'nish qarorini qabul qildi.

Samolyot muvaffaqiyatli qo'nganidan so'ng, tibbiyot xodimlari bortga ko'tarilib, zarur yordam ko'rsatishdi. Ona va chaqaloq mahalliy klinikaga yetkazildi.

Uzbekistan Airways ushbu ajoyib voqea bilan baxtiyor oilani tabriklaydi! Shuningdek, ekipaj va tibbiy xodimlarga o'zlarining professionalligi va hamjihatlikda ko'rsatgan yordamlari uchun chuqur minnatdorlik bildiradi.